

**Talabalar ta'lim sifatini oshirish maqsadida chet el universitetlari bilan hamkorlik o'rnatish.**

**Sanaqulov Sultonmurod Sarvar o'g'li**

**Xalqaro Nordik universiteti**

[s.sanaqulov@nordicuniversity.org](mailto:s.sanaqulov@nordicuniversity.org)

**+99897-900-02-16**

Xorijda qisqa vaqtda ilmiy daraja olish imkoniyati yaratiladi

Xalqaro Nordik universitetiga Janubiy Koreyaning ASSIST universiteti vakillari tashrif buyurdilar.

Xorijiy delegatsiya a'zolari bilan muloqot o'tkazilib, universitetning ta'lim imkoniyatlari xususida ma'lumotlar olindi.

Uchrashuvda ASSIST universitetiga o'qishga kirib, Yevropaning qator davlatlarida magistr, doktorlik darajalari va ikki tomonlama diplomlar olish, eng muhimi o'qish vaqtini tejash (magistraturada o'qish - 1 yil) kabi qator takliflar ilgari surildi.

**Ma'qsad**

Hamkorlikning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

1. **Ilmiy hamkorlik:** Tadqiqot loyihalari va ilmiy ishlar doirasida birgalikda ish olib borish, ilmiy maqolalar nashr qilish, konferensiyalar o'tkazish.
2. **Ta'lim va kurslar:** O'zaro almashuv dasturlari, kurslar va treninglar o'tkazish, talabalar va professor-o'qituvchilar uchun o'qish va o'qitish imkoniyatlarini yaratish.
3. **Madaniy almashuv:** Talabalar va xodimlar o'rtasida madaniy almashuvlarni amalga oshirish, ikki tomonning madaniy merosini o'rganish va targ'ib qilish.
4. **Texnologik innovatsiyalar:** Zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ularni o'zaro tajriba almashish va amaliyotda qo'llash.

